

Zebo Fazliyeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
“Sahna harakati va jismoniy madaniyat”
kafedrası dotsenti
E-mail: zebfazlieva@mail.ru

RAQS ANSAMBLARI IJODIDA O'ZBEK MILLIY RAQS MAKTABLARINING USLUBIY IFODALANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy raqs san'atining muhim tarkibiy qismi bo'lgan raqs maktablarining ansambllar ijodida namoyon bo'lish jarayoni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablarining uslubiy xususiyatlari, ularning zamonaviy sahna talqinidagi ifodasi, ansambllar repertuarida an'anaviylik va yangilanish uyg'unligi masalalari yoritiladi. Tadqiqot davomida bugungi badiiy jarayonda uchrayotgan muammolar, jumladan, uslubiy qorishiq holatlar, professionalsiz yondashuvlar va ularning milliy raqs taraqqiyotiga salbiy ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek milliy raqsi, raqs ansambli, raqs maktablari, xoreografiya, uslubiy ifoda, sahnaviy talqin, an'anaviy raqs.

STYLISTIC EXPRESSION OF UZBEK NATIONAL DANCE SCHOOLS IN THE CREATIVITY OF DANCE ENSEMBLES

Abstract. This article analyzes the manifestation of stylistic traditions of Uzbek national dance schools in the work of dance ensembles, which constitute an important component of Uzbek national dance art. The study examines the issue from both theoretical and practical perspectives. In particular, the stylistic features of the Fergana, Bukhara, and Khorezm dance schools, their expression in contemporary stage interpretations, and the harmony between tradition and innovation in the repertoire of ensembles are highlighted. The research also considers the problems encountered in today's artistic process, including stylistic mixing, unprofessional approaches, and their negative impact on the development of Uzbek national dance.

Keywords: *uzbek national dance, dance ensemble, dance schools, choreography, stylistic expression, stage interpretation, traditional dance.*

O'zbek milliy raqs san'ati xalqimizning ko'p asrlik madaniy merosi, estetik qarashlari va ma'naviy qadriyatlarini mujassam etgan noyob san'at turidir. Milliy raqslar orqali xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, mehnat jarayonlari, quvonch va iztiroblari badiiy ifoda topadi. Shu jihatdan raqs san'ati nafaqat estetik hodisa, balki milliy o'zlikni anglash va avlodlararo madaniy uzviylikni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida o'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atiga davlat miqyosida alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1997-yilda qabul qilingan "O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmon va unga muvofiq qarorlar milliy raqs san'atining tiklanishi, rivoji va tizimli o'rganilishiga mustahkam zamin yaratdi. Mazkur hujjatlar raqs maktablari an'alarini asrab-avaylash, ularni ilmiy asosda rivojlantirish va zamonaviy sahna talqiniga moslashtirishni dolzarb vazifa sifatida belgiladi.

O'zbek xalq raqsining asosiy yo'nalishlari Farg'ona, Buxoro hamda Xorazm raqs maktablariga ajratilgan. Har bir maktab ma'lum bir hudud, ya'ni viloyatlarni o'z ichiga oladi. Viloyatlar geografik joylashuvi, iqlimi, tarixiy va etnografik kelib chiqishi, turmush tarzining uyg'unlashuviga qarab maktablarga bo'lingan. Har bir maktabga xos qo'l va oyoq holatlari o'sha hududning etnik kelib chiqishi, hayot kechirishi va mashg'ulotlari bilan bog'liq. Bu raqs harakatlarini san'atshunos olimlar R.Karimova bosqichma-bosqich tizimlashtirgan. Natijada xalq raqslari to'g'ri ijro va raqs leksikasi asosida keyingi avlodlarga yetkazilmoqda.

Olimlar Farg'ona uslubidagi raqslarning kaliti bo'lgan qo'l va oyoq harakatlarining 7 ta harakatini o'ylab topdi [1, 5-b]. O'zbek xalq raqsi maktablarida qo'l va oyoq holatlari o'ta muhimdir. Aynan qo'l holatlaridan raqs harakatlari yaratilgan. Agar bu kabi pedagogik tizimlashtirish bo'lmaganida raqs harakatlari tushunarsiz o'rgatilgan bo'lar edi.

Mavjud raqs uslublarning o'ziga xosligini tushunish uchun har bir uslubdagi asosiy harakatlarni yozib olish va raqslarni qog'ozda ifoda etishdek alohida tizimni kashf etish zarur edi. Shu tariqa olim tomonidan raqs harakatlarini yozib olishga kirishildi. R. Karimova izlanishlari natijasi sifatida birin-ketin xalq raqsi uslublari bag'ishlangan "Farg'ona raqsi" (1973), "Xorazm raqsi" (1975), "Buxoro raqsi" (1977) deb nomlangan o'quv qo'llanmalari yaratildi.

1973-yilda nashr etilgan "Farg'ona raqsi" [2] kitobida, asosan, Farg'ona raqs maktabi uslubidagi raqs tahlili, har bir ijro harakatining ketma-ketligi, holatdan holatga o'tish qoidalari va ko'rinishlari, oyoq va qo'l harakatlari batafsil bayon etilgan.

Farg'ona raqs maktabiga xos harakatlar o'simlik dunyosiga, hayvonlarga, qushlarga va tabiat hodisalaridagi harakatlarga taqlid qilishga asoslangan.

Har bir raqs maktabi 7 ta qo'l holati va 7 ta oyoq holatiga ajratildi. Mana shu 7 holat orqali raqs harakatlari yaratildi [2, 5–9-b].

O'zbek raqs san'ati tarixan Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablari asosida shakllangan. Har bir maktab o'ziga xos harakatlar tizimi, plastika, ritm, xarakter va sahnaviy ifoda vositalariga ega.

Farg'ona raqs maktabi nafislik, mayinlik va ichki lirizm bilan ajralib turadi. Unda qo'l va bilak harakatlarining nozikligi, qomatning erkinligi ustuvor hisoblanadi.

Farg'ona raqs maktabida yana shunday raqs harakatlari mavjudki, unda qahramon insonning o'zi. Shuningdek, inson his-tuyg'ulari va turmush tarziga taqlid qilingan raqs harakatlari ham bor.

Farg'ona raqsida oyoq mushaklari tomondan belga tarang tutiladi. Lekin bel mushaklari biroz bo'sh qo'yilib, oyoqlar xiyol bukiladi. Asta qadam qo'yilib, yengil o'tiriladi, tizza o'z o'rniga keladi. Oyoqlarning yengil bukilishi tufayli mumtoz raqsda kabi kontrapunkt chizig'i belning kichik markaziy qismiga emas, balki yelka mushaklari bo'ksaga bosim o'tkazadi.

O'zbek raqsining har bir maktabi o'ziga xos nafis kuy-ohanglari va plastik qismlari bilan ajralib turadi.

Buxoro raqs maktabida tantanavorlik, vazminlik va sahnaviy salobat yetakchi o'rin egallaydi.

Buxoro raqs maktabida ham 7 holat asosida shakllantirilgan tizimli raqs harakatlari mavjud [2, 21-b]. Ammo boshqa raqs maktablarining qo'l holatlaridan keskin farq qiladi. Barmoqlar ochiq, jipslashgan kaflar yuqoriga qaragan holda ijro etiladi. Qo'ldasta holatlari bilak orqali keskin va aylanma usulda harakatlantiriladi.

Buxoro raqslaridagi tananing nozik egilishlari, raqs harakatlarining murakkab tuzilishi shundan dalolat beradiki, ushbu raqslar xalq o'yinlaridan oziqlanib, katta ijodkorlar davrasida rivojlanib kelgan.

Buxoro raqslarida qomatning yelkadan pastki qismi erkin qo'yiladi. Raqs harakatlari viqorli va keskin. Buxorocha raqslarda Farg'ona raqslaridagi kabi qo'llar cho'zilmaydi. Ularda tirsaklar qattiq bukilgan holatda bo'lib, panjalar harakati quruqroq chiqadi. Harakatlar va panjalarni qarsillatish musiqaga mos keladi. Qomat adl va sho'xchan, qadamlar esa oddiy bo'ladi.

Qadim davrlardan shakllangan Buxoro raqslaridagi harakatlar o'zining mardonavorligi va shiddatliligi, qayrilish, yarim qayrilish, shox va charxlarga boyligi bilan ajralib turgan.

Buxoro raqsini ifodalashning asosiy usullari sifatida yelka, qo'l, tananing butun tepa qismi harakatlarini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, raqsda tez yoki bilinar-bilinmas tarzda almashinuvchi holatlar diqqatga molik [2, 38-b]. Buxoro raqsida tana harakatlari birinchi o'rinda turib, insonning go'zal tuzilishini namoyish qiladi.

Xorazm raqs maktabi esa kuchli ritm, keskin harakatlar va jo'shqinlik bilan xarakterlanadi.

Xorazm raqsarlari, asosan, cho'l hududida paydo bo'lib, ko'proq diniy marosimlarga bog'liq xatti-harakatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ya'ni Avesto davridan rivojlana boshlagan otashparastlik marosimlaridagi harakatlarni takrorlashi,

uni mukammal tizimga sola bilgani bilan farq qiladi. Qolaversa, bu hududlarda istiqomat qilgan odamlarning urf-odatlarini, kundalik turmushda foydalangan jihozlari, ularni ishlatishdagi farqlar ham raqs harakatlariga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xorazm raqs maktabida ham Farg'ona raqs maktabidagi kabi tizimlashtirilgan 7 holat asosida shakllantirilgan raqs harakatlari mavjud [3, 19-b]. Ammo Farg'ona raqs maktabidagi qo'l holatlaridan tubdan farq qiladi. Farg'ona raqs maktabida barmoqlar yuqoriga qaratilgan bo'lsa, Xorazm raqs maktabida barmoq uchlari bilakdan siniq holda ijro etiladi. Qo'ldasta holatlari Xorazm raqs maktabida bir necha xil ko'rinishga ega bo'lib, har bir holatda bajariladigan quyidagi raqs harakatlari mavjud.

Xorazm raqs maktabida yana shunday raqs harakatlari mavjudki, bu yerda insonning o'zi asosiy qahramon sanaladi. Bundan tashqari, hazilomuz raqs harakatlari, turmush tarziga va tana a'zolariga taqlid qiluvchi raqs harakatlari ham mavjud bo'lgan.

“Xorazm raqsi har doim tomoshabinga shodlik, sof tuyg'ularga asoslangan samimiylilikni, estetik zavq-shavq hislarini ulashadi. Zamonaviy raqs ustalari repertuarida qadimiy udumlar, o'yinlar, diniy marosimlarga xos raqslar bor. Ular qushlar va hayvonlarga taqlid qiluvchi syujetli-pantomimali raqslardir. Bu yerda musiqa, qo'shiq, pantomima, so'z va dramatik elementlar birlashadi” [4].

Bugungi kunda faoliyat yuritayotgan ko'plab raqs ansambllari milliy raqs maktablari an'analarga murojaat qilmoqda. Biroq ayrim holatlarda maktablar uslubiy xususiyatlarining to'liq saqlanmasligi, turli maktablarga xos harakatlarning qorishib ketishi kuzatilmoqda. Bu holat raqsning tashqi shakli saqlangan holda, uning ichki mazmuni va badiiy jozibasining yo'qolishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, raqslarning qo'shiq ijrolarida faqat bezak unsuri sifatida qo'llanilishi, noprofessional baletmeysterlar faoliyati, ta'lim tizimidagi uzilishlar milliy raqs san'atining rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Qunduz Mirkarimova, Roziya Karimova kabi buyuk raqs

ustalarining ijodi milliy raqs maktablarining sahnaviy talqinda muvaffaqiyatli namoyon bo'lishiga yorqin misol bo'la oladi. Ular tomonidan yaratilgan ansambllar va tarbiyalangan ijrochilar faoliyati tufayli xalq raqs merosi zamonaviy sahnada o'z o'rnini saqlab qoldi.

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, raqs ansambllari ijodida milliy raqs maktablarining uslubiy xususiyatlarini to'liq va aniq ifodalash masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot jarayonida ansambllar repertuarining tahlili shuni aniqladiki, ayrim jamoalarda tarixiy-etnografik asosga tayangan holda sahnalashtirilgan raqslar muvaffaqiyatli ijro etilayotgan bo'lsa-da, ko'plab holatlarda uslubiy aniqlik yetishmasligi kuzatiladi.

Xususan, Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablariga xos bo'lgan harakatlar tizimi, ritmik tuzilma va sahnaviy ifoda vositalari ba'zan bir-biriga qorishib ketmoqda. Bu esa raqsning badiiy qiymatini pasaytirib, tomoshabin tomonidan maktabga xos xususiyatlarni aniq idrok etilishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, raqslarning estrada sahnasida faqat tashqi bezak unsuri sifatida qo'llanilishi ularning mazmuniy chuqurligini yo'qotishiga olib kelmoqda.

Raqs maktablarining an'analarni saqlab qolish va ularni davom ettirishda maktab repertuaridagi mavjud har bir raqsni professional ijro eta oladigan raqqosalarni tarbiyalash o'ta muhimdir. Raqs maktablaridagi harakatlarni yanada sayqallash va takomillashtirishda ularni aprobatsiyadan o'tkazish, ilmiy davralarda muhokama qilish va shu orqali raqs maktablarining nazariy asoslarini mustahkamlab borish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Hududiy raqs maktablarining yuzaga kelishida o'sha maktablarni yaratgan usta san'atkorlar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgani, mahalliy aholining etnik kelib chiqish tarixi chuqur o'rganilgani, turmush tarzidan yaxshi xabardor bo'lgani ma'lum. Buxoro raqs maktabini Isoxor Oqilov tizimlashtirgan bo'lib, uning ishlarini Viloyat Oqilova faol davom ettirdi. Garchi bugungi kunda mashhur raqqoslar, xalq artistlari va xizmat ko'rsatgan san'atkorlar tarafidan ushbu maktabga oid ayrim raqslar ijro etib kelinayotgan bo'lsa-da, raqs maktabining barcha raqslari mukammal

o'zlashtirilmagan. Shu bois, har bir hududiy maktabning davomchilarini aniqlash, belgilash va rivojlanishini ta'minlash bugungi o'zbek raqs san'ati mutaxassislari oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi. Bunga yechim topishda raqs an'analarini amaliy va ilmiy jihatdan asrab qolishga, soha ta'limiga alohida e'tibor qaratish, bu borada keng tarmoqli hamkorlik ishlarini olib borish talab etiladi.

Bu holat professional yondashuv, ilmiy-nazariy bilimlar va amaliy tajribaning uyg'unligi muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqs ansambllari ijodida o'zbek milliy raqs maktablari uslubiy ifodalanishini ta'minlash san'atimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Milliy raqs maktablarining tarixiy, etnografik va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganish, ularni sahnaviy talqinda to'g'ri qo'llash ansambllar ijodining badiiy saviyasini oshiradi. Milliy raqs maktablari an'analarini saqlash va rivojlantirish, ta'lim jarayonida malakali mutaxassislarni jalb etish, pedagogik va metodik ishlarni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Milliy raqs maktablari uslublarini asrab-avaylash va ularni jahon sahnasida munosib targ'ib etish o'zbek san'atining xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, raqs ansambllari faoliyatini tizimli ravishda tahlil qilish va ilg'or tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova R. *Doira zarblariga mashg'ulot.* – Toshkent: Madaniyat ishlari vazirligi, 1995. – 48 b.
2. Каримова Р. *Ферганский танец.* – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1973. – 180 с.
3. Каримова Р. *Хорезмский танец.* – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1975. – 112 с.
4. Karimova R. *Merosiy raqs durdonalari.* – Toshkent: Cho'lpon, 2003. – 102 b.